XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Chiroqchi, +998 97 617 1952, kengashchiroqchi@gmail.com

2025-yil 30-dekabr VII-13-84-4-66-K/25 Chiroqchi tumani

Chiroqchi tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105 son Qonuniga va xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-20-218-4-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01-20-10/01-38/3437-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Chiroqchi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-20-218-4-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qarorga muvofiq, Chiroqchi tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **148 348 671.0 ming so‘m** va xarajatlari **148 348 671.0 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Chiroqchi tumanining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatgichlari **1-ilova**ga;

Chiroqchi tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

Tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

2026-yil uchun tuman mahalliy budjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari **4-ilova**ga;

4. Tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **5-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

6. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 931 051.0 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tuman budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

tuman mahalliy budjetining zahira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

7. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga;**

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga;**

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar **9-ilovaga;**

2026 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **10-ilovaga;**

2026 yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **11-ilovaga;**

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **12-ilovaga;**

Tumandagi mahalla fuqarolar yig`inlari bo`yicha jismoniy va yuridik shaxslarga 2026-yil uchun belgilangan yer solig`i bazaviy stavkalarga qo`llaniladigan koeffisentlar **13-ilovaga;**

Tumandagi 2026-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **14-ilovaga**;

Tumandagi 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **15-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, mazkur qarorning 7 va 8-ilovalariga asosan qo‘llaniladigan koeffitsientlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.v.b - tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (B.Yoriyev), tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i (A.Omonov) 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Tuman hokimligi hamda barcha mas’ul tashkilotlar 2026-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Omonov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi Chiroqchi tuman bo‘limi (Q.Jo‘rayev), tuman soliq inspeksiyasi (A.Omonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Chiroqchi tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM (B.Chuqmorov) va tuman soliq inspeksiyasi (A.Omonov) tumandagi mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

13. Tuman ichki ishlar, Adliya bo‘limi tumanda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

14. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimligi hamda mas’ul tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

15. Tuman mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchilar hamda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Chiroqchi tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

16. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (N.Ismonov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

17. Tuman hokimligi Axborot xizmati (S.Raimqulov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Omonov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi bilan birgalikda hokimlik hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

18. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvar kundan boshlab kuchga kiradi.

20.Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kegashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Chiroqchi tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-019-4-66-K/24-sonli qarori 2026-yil 1-yanvar kundan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

21.Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kegashining 2025-yil 25-yanvardagi “2025-yilda Chiroqchi tumani yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash

to‘g‘risida”gi VII-5-9-4-66-K/25-sonli qarori 2026-yil 1-yanvar kundan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.v.b – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.Yoriyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyaga raislik qiluvchi **ELMURODOV FARHOD BAYMANOVICH**

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Chiroqchi tumanining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yilga mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2027-yil	2028-yil
1.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	104,2	104,4	104,8
2.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	106,6	107,0	107,2
3.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	104,2	104,5	105,0
4.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	112,8	113,5	114,5

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Chiroqchi tuman mahalliy budjeti daromadlarining
2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Mahalliy reja
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 300 000,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	5 988 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	45 106 442,0
4	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	2 100 000,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 112 000,0
6	Aksiz solig‘i, jami	12 915 000,0
	shu jumladan:	
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*12 915 000,0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 128 000,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 428 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	6 551 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	39 605 229,0
11	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	827 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 753 000,0
13	Davlat boji	5 739 000,0
14	Jarimalar	4 950 000,0
15	Ijara to‘lovi	96 000,0
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
17	Yig‘imlar	1 750 000,0
18	Xususiylashtirish	

19	Boshqalar	
JAMI		**148 348 671,0**

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Chiroqchi tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**148 348 671,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**148 348 671,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**48 342 897,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**48 342 897,0**
	shundan:	
	"Mening maktabim"	7 745 000,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Madaniyat bo'limi**	**6 159 679,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 159 679,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sport bo'limi**	**6 420 848,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 420 848,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Yoshlar ishlari agentligi**	**6 194 430,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 194 430,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Qishloq xo‘jaligi bo'limi**	**4 647 714,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 647 714,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Suv etkazib berish xizmati DM**	**1 786 286,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 786 286,0**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Iqtisodiyot va moliya bosh bo‘limi**	**2 907 100,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 907 100,0**
	shundan:	
8	**Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy kunikma markazlari xarajatlari**	**107 865,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**107 865,0**
	shundan:	
9	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**1 767 358,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 767 358,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Hokimiyat**	**46 495 792,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**46 495 792,0**
	shundan:	
	Zaxira jamg‘armasi	1 931 051,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	26 176 415,0
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	2 998 178,0
11	**Hokimiyat** (Obodonlashtirish boshqarmasi)	**22 726 665,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**22 726 665,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**792 037,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**792 037,0**
	shundan:	
	Axborot-kutubxona markazlari	730 876,0
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	61 161,0

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Chiroqchi tumani	0	66	100	34	0	69	100	31	100	100	0	0	0	66	100	34	0	0	100	100	0	0	100	100	0	63	100	37

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
12	Chiroqchi tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	0	100	100	100	0	50	50	50	50	50	50

Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari (3510810) tuman (shahar)lar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111600 daromad kodiga tushadigan mablag‘lar to‘liq taman va shaharlar budjetlariga yo‘naltiriladi;

3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha 3141103 daromad kodiga tushgan mablag‘larning *(20 foizi)* to‘liq viloyat budjetiga yo‘naltiriladi;

4. Jarimalar (3430103), davlat boji (3422103) va yig‘imlar (3422203) bo‘yicha tushumlar to‘liq tegishli tuman va shag‘arlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi;

5. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilan me’yorlarga asosan taqsimlanadi.
6. O‘zbekiston Respublikasning 25.12.2025 yildaga “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonunning 12-moddasi, 4-bandiga binoan viloyat budjetiga qoladigan qismi, qo‘shilgan qiymat solig‘i *(20 foiz)* va alkogol mahsulotlari aksiz solig‘i *(30 foiz)*dan tushgan tushumlar 100 foiz miqdorida hisobga olingan.

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Chiroqchi tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Budjetlar nomi	Daromad	Xarajat
Chiroqchi tumani	148 348 671	148 348 671

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
6-ilova

2026-yilda Chiroqchi tuman mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Chiroqchi tumani	1 128 423,0

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Chiroqchi tumanida Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Tuman nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (ming.so‘m)
1	Chiroqchi tumani	1,08	45 792,0

Izoh: Tuman Kengashi tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman markazi uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Chiroqchi tumanida Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Tuman nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘m)
1	Chiroqchi tumani	0,93	351

Izoh: Tuman Kengashi tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman markazi uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Chiroqchi tumanida Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

T/r	Tuman nomi	Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbattan qo‘llaniladigan (*Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli sub’ektlardan tashqari*)	
		Koeffitsent miqdori	**Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, so‘mda)**
1	Chiroqchi tumani	0,90	1 251 000

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
10-ilova

Chiroqchi tumanida 2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

T/r	Tuman nomi	Bir oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda			
		Binolar:			
		Turar joy		Noturar joy	
		Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so‘mda)
1	Chiroqchi tumani	1,30	7 670	1,40	16 520

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
11-ilova

Chiroqchi tumanida 2026-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Tuman nomi	Soliq kodeksi bo‘yicha 2026-yil uchun belgilangan stavka %	Koeffitsient miqdori	Koeffitsient qo‘llanilganidan keyingi soliq stavkasi %
1	Chiroqchi tumani	0,95	1,00	0,95

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
12-ilova

Chiroqchi tumanida Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan o‘rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Tuman nomi	2026 yil koeffitsient miqdori				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.mdan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlari
1	Chiroqchi tumani	1,15	1,15	1,15	1,15	1

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
13-ilova

Chiroqchi tumanidagi mahalla fuqarolar yig`inlari bo`yicha jismoniy va yuridik shaxslarga 2026 yil uchun belgilangan yer solig`i bazaviy stavkalarga qo`llaniladigan koeffisentlar

№	Mahalla fuqarolar yig`ini nomi	*Tuman xalq deputatlari tomonidan belgilangan koeffitsent*		*Soliq summasi*	
		Turar	***Noturar** (yuridik)*	***Jismoniy shaxslar uchun yer solig`i stavkasi (1 kv.m uchun so`mda)***	***Noturar** (yuridik 1 gektar)*
1	Amir Temur MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
2	Arabbandi MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
3	Beshbuloq MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
4	Bolsuvar MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
5	Buronjuz MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
6	Chambil MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
7	Chiljuvit MFY	0,82	0,82	287,50	37 549 440,00
8	Chimqurg‘on MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
9	Chiroqchi MFY	1,13	1,13	396,19	51 744 960,00
10	Chorshanba MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
11	Choshtepa MFY	1,13	1,13	396,19	51 744 960,00

12	Dam MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
13	Dodiq MFY	0,92	0,92	322,56	42 128 640,00
14	Dursun MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
15	Farovon kelajak MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
16	G‘allachi MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
17	Galabek MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
18	Gulobod MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
19	Iftixor MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
20	Istiqlol MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
21	Jar MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
22	Kishmishtepa MFY	1,13	1,13	396,19	51 744 960,00
23	Ko‘ktosh MFY	0,90	0,88	315,55	40 296 960,00
24	Langar MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
25	Mirzatup MFY	0,82	0,82	287,50	37 549 440,00
26	Mustaqillik MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
27	Navoiy MFY	1,13	1,13	396,19	51 744 960,00
28	Navruz MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
29	Nurobod MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
30	O‘zbekiston MFY	1,13	1,13	396,19	51 744 960,00
31	Obod MFY	0,92	0,92	322,56	42 128 640,00
32	Obu-xayot MFY	0,88	0,88	308,54	40 296 960,00
33	Olmazor MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
34	Oq oltin MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
35	Oqtosh MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
36	Pakandi MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
37	Paxtaobod MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
38	Qalqama MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
39	Qaxramon MFY	0,82	0,82	287,50	37 549 440,00
40	Qirg‘iz MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
41	Qizilchovra MFY	0,92	0,92	322,56	42 128 640,00

42	Qo‘rg‘ontepa MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
43	Quruqsoy MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
44	Qo’shanhor MFY	0,88	0,88	308,54	40 296 960,00
45	Shakarbulok MFY	0,88	0,88	308,54	40 296 960,00
46	Sohil MFY	0,92	0,92	322,56	42 128 640,00
47	Tarag‘ay MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
48	Uyshun MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
49	Xalqobod MFY	0,82	0,82	287,50	37 549 440,00
50	Xumo MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
51	Yangi Dam MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
52	Yangiqishloq MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
53	Yangiqurilish MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00
54	Yashnaobod MFY	0,77	0,77	269,97	35 259 840,00
55	Zarbdor MFY	1,08	1,08	378,66	49 455 360,00

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
14-ilova

2026-yil uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

№	Tuman va shaharlar nomi	2026-yil uchun qo'llanilgan koeffitsiyentlar (so'mda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin so'm/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar so'm/m.kub		Marmar so'm/m.kub		Granitlar so'm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch so'm/tonna		G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar so'm/m.kub		Qum-shag'al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar so'm/m.kub	
		Koeffitsiyent	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*

1	Chiroqchi tumani	1,20	7 909	1,20	12 840	1,20	25 680	1,20	38 520	1,20	20 479,2	1,30	6 425,9	1,30	6 955,0

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-13-84-4-66-K/25 -son qaroriga
15-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T.R	Tuman va shaharlar nomi	Faoliyat turlari kesimida		
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun moʻljallangan, yashash uchun moʻljallanmagan koʻchmas mulk obyektlariga ega boʻlgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo`llaniladigan koeffitsiyent miqdori
12	Chiroqchi tumani	1,20	1,4	1,2